Sharapov Dinmuxammad Ravshanbekovich — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad usta-qutqaruvchisi

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Muxiddinov Baxtiyor Ishanbuvaxanovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali bosh kardiologi — bo‘lim boshlig‘i

Xudenov Xusen Yusupovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali bosh mutaxassisi — bo‘lim boshlig‘i

“Jasorat” medali bilan

Agzamov Farxod Akmalovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi katta tezkor vakili

Akbarov Botir Shokir o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi qidiruv-qutqaruv otryadi usta-qutqaruvchisi

Asadov Bekzod Maxsud o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad g‘avvos-qutqaruvchisi

Atadjanov Baxtiyor Bekmatovich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘riqlash boshqarmasi Nukus shahri qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari

Bobonazarov Muzaffar Komiljonovich — Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i

Yodgorov Otabek Olimjanovich — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad feldsher-qutqaruvchisi

Jumabayev Baxriddin G‘ulomjon o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Jumaniyazov Bakturdi Quramboyevich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Xorazm viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi Xonqa tumani qo‘riqlash bo‘limi guruh safdor-xodimi

Ikramov Shovkat Adxamovich — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad haydovchi-qutqaruvchisi

Ismatov Farruxjon Komildjonovich — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi guruh komandiri

Mahmudov Bahodir Mansur ug‘li — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad yo‘riqchi-qutqaruvchisi

Mustafoqulov Ilxom Samardinovich — Surxondaryo viloyati Boysun tumani ichki ishlar bo‘limi katta tezkor vakili

Ortikov Jamol Ko‘paysinovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandirining o‘rinbosari — bo‘lim boshlig‘i

Raximberdiyev Alisher Ayubovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh komandiri

Raximov Shodlik Shuxratovich — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Sobirov Sanjarbek Abduxalilovich — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Tog‘ayev Rustam Nurmamatovich (marhum) — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Tog‘ tayyorgarligi o‘quv-mashg‘ulot markazi katta yo‘riqchisi

Tog‘ayniyazov Mansur Xasanovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vzvod yo‘riqchi-serjanti

Ubaydullayev Sanjarbek Maxmudovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma prokurori

O‘ralov Sirojiddin Bektemirovich — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi guruh komandiri

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Axmedov Rustam Shukuraliyevich — Toshkent viloyati Bojxona boshqarmasi “Masofaviy elektron deklaratsiyalash” bojxona posti boshlig‘i

Bekchonov Shuxrat Sultonmurodovich — Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Bobaraxmatov Maxmudjon G‘ulomovich — Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati otryadi bo‘linma komandiri

Boltaboyev Jaxongir Komiljonovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali bo‘linmasi katta ordinatori

Jumayev Jamshid Baxtiyorovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh komandirining o‘rinbosari

Jo‘rayev Maxmudjon Maxamadjonovich — Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l-patrul xizmati inspektori

Iminov Ziyod Galibovich — Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari

Kenjayev Asilbek Baxtiyarovich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism seksiya komandiri

Qodirov Xayrulla Baratovich — Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati batalyoni bo‘linma komandiri

Mirazimov Mirzoxid Mirsaidovich — Namangan viloyati Pop tumani ichki ishlar bo‘limi tezkor vakili

Mirzayev Shavkatjon Ahadaliyevich — Farg‘ona shahar bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi profilaktika katta inspektori

Muxamedov Odil Ismatovich — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Normuxammedov Mirmuxsin Murtozayevich — Navoiy viloyati Navoiy shahar ichki ishlar boshqarmasi profilaktika katta inspektori

Otaboyev Farxod Rizokulovich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Samarqand viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi Samarqand shahar qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘i

Paxratdinov Maxsudjan Maxmudjanovich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tezkor vakili

Rasulov Ibroxim Asatovich — Buxoro shahar prokurori

Raximov Islombek Aminboyevich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bosh markazi bo‘lim katta texnigi

Saydazova Xalida Sadikovna — Toshkent transport prokurorining katta yordamchisi

Saparov Amangeldi Yerejepovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti kafedrasi sikl boshlig‘i

Sariboyev Ulmasjon Norbutayevich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism otryad komandirining yordamchisi

Seytmuratov Xojamurat Kulmuratovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandirining o‘rinbosari

Taymuratova Gulchexra Amonovna — Toshkent shahar Olmazor tumani bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori

Tog‘ayev Azamat Javliyevich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani bo‘limi boshlig‘i

Toxirov Zafarjon Toxirjon o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari — sikl boshlig‘i

Toshboyev G‘olibjon Foziljonovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vzvod katta yo‘riqchisi — mexanik-haydovchi

Turdiyev G‘olib Mustafoyevich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish koloniyasi boshlig‘i

Ungarbayev Iskander Orunbasarovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Metropolitenda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi safdor-xodimi

Uralova Ruxsora Toshpulatovna — Sirdaryo viloyati Adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi

Xoshimov Xojiakbar Abdulaxadovich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism mutaxassis-haydovchisi

Shukurov Akram Gayratovich — Jizzax viloyat sudi raisining o‘rinbosari

Esanov Islom Abdujabbarovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vzvod yo‘riqchi serjanti

Eshankulov Musratilla Mardankulovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining “Samarqand” xalqaro aeroportida xavfsizlikni ta’minlash alohida batalyoni guruh komandiri

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Kenjebayev Baxitjan Kurbanaliyevich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali mobil otryadi bo‘linma mutaxassisi

Saidnazarov Xamidullo Ibodullo o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Shukurova Aysha Xudaynazarovna — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy gospitali katta hamshirasi

“Shuhrat” medali bilan

Abdullayeva Risolat Sunnatovna — Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi direktori

Absattorov Azizjon Xusanovich — Jizzax viloyati Arnasoy tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Allakuliyev Mirjalol Davranbekovich — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi departament boshlig‘i

Arabboyev Sardorbek Turgunovich — Andijon viloyati Oltinko‘l tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Ataxanov Kudrat Kuranbayevich — Xorazm viloyati Bojxona boshqarmasi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha katta tezkor vakili

Berdiyeva Oysanamxon Kodirjon-qizi — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism mutaxassis o‘qchisi

Bobojonova Farida Mansurovna — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Gulov Ramshid Salim o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism otryad komandirining o‘rinbosari

Dusmuxamedov Alisher Ismatillayevich — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i

Jalolov Mansurjon Shamsiddinovich — Buxoro viloyati Qorako‘l tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Jumayev Zarifjon Quziqulovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Navoiy viloyati Qiziltepa tumani bo‘limi davlat ijrochisi

Juralov Abdirashid Isakovich — Qashqadaryo viloyati Muborak tumani prokurori

Jo‘raboyev Ozodbek Abduqaxxorovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi boshqarma boshlig‘i

Zaminova Kamola Taxirjanovna — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism seksiya mutaxassisi

Qosimov Sherzod Sarimsoqovich — Jizzax viloyati Do‘stlik tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

Kuliboyev Adxam Niyozovich — Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi yo‘l-patrul xizmati inspektori

Mamatqulov Oybek Abdullayevich — Farg‘ona viloyati Bojxona boshqarmasi katta tezkor vakili

Mirzabayev Sardor Xudayberdiyevich — Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari

Mirzaraimov Nuridin Raximberdiyevich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent shahar Qo‘riqlash boshqarmasi Yunusobod tumani qo‘riqlash bo‘limi texnik qo‘riqlash markazi safdor-xodimi

Muminov Nodirbek Abduqaxarovich — Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati batalyoni bo‘linma komandiri

Nigmatov Ravshan Maxkambayevich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent harbiy musiqa akademik litseyi direktori

Norboyev Buxor Malikmaxmatovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh komandirining o‘rinbosari

Radjapov Qadamboy Shuxratovich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh katta mexanigi

Raxmankulov Ilxomjon Xakimovich — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi

Risnazarov Aydos Uzakbergenovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi katta inspektori

Tairov Alisher Ziyadullayevich — Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati batalyoni safdor-xodimi

Urakov G‘ayrat Xalilovich — Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Xaknazarov Xudoyberdi Dilmurodovich — O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti fakultet boshlig‘i

Xolmatov Bekzod Shuxratovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘lim boshlig‘i

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti | **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 27-avgust

TARAQQIYOT MEZONLARI

TADBIRKOR QONUNAN ISH OLIB BORSA

oshig‘i olchi, hech kim yo‘lini qaytarmaydi

Boshlanishi 1-betda

Ayni paytda yiliga o‘rtacha 3 million dollarlik eksport qilishni mo‘ljal qilayotgan tadbirkor kelgusida faoliyat turini yanada kengaytirishni maqsad qilgan. Jumladan, ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali qo‘shimcha 200 ta ish o‘rni yaratish keyingi loyihasidan o‘rin olgan.

— Hozir qo‘qonlik mutaxassislar ishchilarimizga oyoq kiyim tayyorlashni o‘rgatmoqda, — deydi I.Panjiyev. — Tez orada mahsulotlarimizni ichki bozorga chiqarishni boshlab yuboramiz. Asosiysi, biz, tadbirkorlarga imkoniyatlar eshigi ochilmoqda, ikkilanishga hojat yo‘q. Har bir imtiyozdan unumli foydalanib, faqat oldinga harakat qilishimiz lozim. Yaqinda o‘tkazilgan ochiq muloqotda ishtirok etib, o‘zimga katta kuch oldim, fidoyilik bilan mehnat qilishimiz kerakligini yana bir bor his qildim.

O‘sish davom etadi

Azim Qashqadaryoda keng ko‘lamli ishlar bo‘lyapti. Vohada birgina o‘tgan olti oyda sanoatda erishilgan natijalarning o‘zi so‘zlarimizga isbot bo‘la oladi.

Qashqadaryo viloyatida joriy 1-yarim yillik yakunlari bo‘yicha 25,9 trillion so‘mlik yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarildi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 foiz o‘sdi. Yalpi hududiy mahsulot tarkibida sanoatning ulushi (qurilish tarmog‘ini qo‘shgan holda) 25,6 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 foiz ko‘paygan.

Bugungi kunda viloyatda 4058 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. shundan 577 tasi joriy yilda tashkil etildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 million so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 104,3 foiz bo‘ldi.

Bugungi kunda vohada 65 ta sanoat yo‘nalishida xorijiy investitsiya ishtirokidagi ko‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 1,9 trillion so‘mlikni tashkil etib, umumiy ulushda 14 foizga yetdi.

Joriy yilda sanoat yo‘nalishida qiymati 8,3 trillion so‘mlik loyihalarni amalga oshirish belgilangan bo‘lib, 1-iyun holatida ushbu loyihalarning 125 tasi ishga tushirildi va 1936 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Ushbu yangi loyihalar hisobiga 235,6 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari tayyorlanishiga erishildi.

Xususan, Yakkabog‘ tumanida “Davr sharob” MCHJ tomonidan yiliga 2 ming dikolitr spirt mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega, qiymati 25 milliard so‘mlik loyiha ishga tushirildi va natijada 50 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Mirishkor tumanida “Temur hamkor plast” MCHJ kuniga 40 tonna pomidorni qayta ishlash quvvatiga ega, qiymati 22,9 milliard so‘mlik loyiha evaziga 530 ta yangi ish o‘rni ochildi.

— Keyingi yillarda viloyatimiz sanoatida yangi marralar zabt etilmoqda, — deydi Qashqadaryo viloyati hokimining sanoat bo‘yicha maslahatchisi Nodir Hamroyev. — Bugun charm-poyabzal yoki oziq-ovqat, to‘qimachilik sanoati deysizmi, barcha-barcha yo‘nalishlarda maqtovga arzirli yutuqlarni aniq raqamlarda keltirib o‘tishimiz mumkin. Shunisi aniqki, buning ta’sirida bugun

elimizda farovonlik, aholining ish bilan ta’minlanishi yaxshilanib, kerakli mahsulotlarga ehtiyoji qondirilmoqda. Odamlarning yashash tarzida o‘zgarish bo‘lmoqda.

Bir paytlari bittagina sanoat korxonasi ochish uchun qanchadan-qancha ovoragarchiliklarga duch kelinardi. Bir amallab ishni boshlashingiz bilan tepangizda tekshiruvchilar paydo bo‘lar, ish yuritishga yo‘l bermasdi. Bundan bezor bo‘lgan kishi qo‘l siltagancha ishni tashlab ketishga majbur bo‘lardi. Bugun esa barchasi boshqacha. Bemalol, istagan sohangizda ish boshlashingiz mumin. Hech kim yo‘lingizni qaytarmaydi. Qonunan ish olib borsangiz, oshig‘ingiz olchi.

Prezidentimizning 2023-yil 3 fevraldagi “2023-2025-yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida ham manzilli ishlar davom etirilmoqda. Jumladan, viloyatda un ishlab chiqarish yo‘nalishida so‘nggi ikki yilda 9 ta yangi korxona ishga tushirildi. Joriy yilda ham 138,5 ming tonna quvvatga ega 11 ta shunday korxona ochilishi belgilangan.

Xususan, yaqinda Qamashi tumanida “Bo‘ritosh aya” fermer xo‘jaligi “Madina” brendi ostida yillik quvvati 10 ming tonna bo‘lgan, umumiy qiymati 6 milliard so‘mlik un ishlab chiqarish korxonasini ishga tushirdi. Natijada 30 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Elektrotexnika sanoatida ham o‘zgarishlar katta. Jumladan, Qarshi shahridagi “Buyuk Turon” kichik sanoat zonasida joylashgan “ALP Texno servis” korxonasi tomonidan o‘tgan 6 oy davomida 25 milliard so‘mlik televizorlar ishlab chiqarildi va xorijga eksport qilindi. Bugungi kunda ushbu korxonaga yangi liniya olib kelib o‘rnatildi. Zavodning mahalliylashtirish darajasi 60 foizga yetkazildi. Yil yakuniga qadar korxonada 100 milliard so‘mlik mahsulot tayyorlanadi.

Raqamlar reallikni ifodalaydi

Viloyatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha ham tizimli ishlar qilinmoqda. O‘tgan davr mobaynida viloyatga 170 million dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya jalb etildi.

Xususan, Kitob tumanidagi “Qarshi konchi sement” MCHJ tomonidan quyosh panellari orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihasi uchun 10,2 million dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya o‘zlashtirildi

Viloyatdagi sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu ishlar natijasida 192,6 million dollarlik sanoat mahsulotlari dunyoning 38 davlatiga eksport qilindi.

Xususan, “Sulton tex group” MCHJ tomonidan 6,8 million dollarlik kalava ip va to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

Viloyatda yil yakuni bilan sanoat ishlab chiqarish hajmi 26,4 trillion so‘mni *(115,2 foiz o‘sish)* tashkil etishi rejalashtirilgan. *Shundan hududiy sanoat hajmi 10,9 trillion* so‘mni *(115,2 foiz o‘sish)* tashkil etishi maqsad qilingan.

Bunda, jumladan, drayver sohalarda jami 7,5 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Viloyatdagi yer osti boyliklaridan samarali foydalanish ko‘lami kengaymoqda. Jumladan, o‘tgan davr mobaynida 50 ta kon savdoga chiqarildi. Ularning 24 tasida qurilish materiallari sanoati yo‘nalishida yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Yil yakuniga qadar ushbu yo‘nalishda yana 40 ta yangi konni auksion savdoga chiqarish orqali yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish belgilangan.

Yer osti zaxiralariga xorijlik investorlarni jalb etishga e’tibor kuchli. Xususan, Chiroqchi tumanidagi kvars, Kitob tumanidagi marmarlashgan ohaktosh xom-ashyosini Avstriyaning dunyoga mashhur “Lassenberger” kompaniyasi tomonidan qayta ishlash yo‘lga qo‘yilmoqda. Ushbu korxona bilan erishilgan kelishuvga ko‘ra, mikrokalsitdan travertin, shpaklyovka, lok-bo‘yoq kabi 40 dan ortiq turdagi qurilish materiali ishlab chiqarish bo‘yicha qiymati 35 million dollarlik loyihani Kitob tumanidagi erkin iqtisodiy zonada joylashtirish belgilangan.

“Sho‘rtangazkimyo” majmuasiga qarashli “Qarshi termaplast” zavodida polietilen quvurlar ishlab chiqarish liniyasi qurilmoqda.

Viloyatda sanoatni rivojlantirish ishlari shu yo‘sinda izchil davom ettirilmoqda.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

BUNYODKORLIK

BU KASBNI *ayollar ham* EPLAY OLADI

Boshlanishi 1-betda

Nukusdagi “Kattagar” temir-beton zavodi bir paytlar shahardagi yirik sanoat korxonalaridan edi. Asrimiz boshlarida bankrotga uchrab, to‘xtab qoldi. U xususiylashtirilgach, ishlar yana yurishib ketdi. Korxonaning nomi “Konkred blud”ga o‘zgardi.

— To‘xtab qolgan korxonani yo‘lga qo‘yish uchun xorijdan yangi uskunalar olib keldik. Chunki avvalgilari ma’nan eskirgan edi. Yangi uskunalarimiz ixcham va energiyasamarador, — deydi “Konkred blud” korxonasi rahbari Marat Huseynov. — Asosan, qurilish mahsulotlari ishlab chiqaramiz. Hozirgi kunda zavodimizda 50 dan ziyod ishchi mehnat qiladi. Ularga yaratilgan shart-sharoit ish sifatiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Bepul tushlik beriladi, yuvinish xonalari ular xizmatida. Oylik maoshlarni ham o‘z vaqtida oladi.

Bugungi kunda korxona Qoraqalpog‘istonning barcha hududlarida olib borilayotgan qurilish-bunyodkorlik ishlariga, yirik inshootlarga mahsulot yetkazib berib, yurtimiz qurilish industriyasida o‘z o‘rnini topib bormoqda. Zavodning payvandlash sexida o‘z kasbining mohir ustalari ishlaydi. Ular orasida ayollar ham borligi e’tirofga loyiq. Payvandlovchilik og‘ir va murakkab kasb bo‘lsa-da, ayollar bu yumushni qoyillatib bajarmoqda.

— Ushbu korxonada ish boshlaganimga o‘n yildan oshdi. Kelgan paytlarimda rosa qiynalganman. Temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarish asosan, erkaklarning ishi deb o‘ylardim, — deydi payvandlovchi Guljahon Utepbergenova. — Lekin ish jarayonida bu kasbni ayollar ham bemalol eplay olishiga ishondim. Ustoz opalardan ko‘p narsa o‘rgandim. Hozir ular nafaqada. O‘rganganlarimni yangi ishga kelgan qizlarga o‘rgatyapman. Uylarimiz shu yaqin atrofda, hech qiynalmasdan kelib ketamiz.

O‘z kasbidan rozi, qilayotgan ishini sevadigan Guljahon opaning faoliyatini kuzatib, uning harakatlariga havasingiz,

zavqingiz keladi. Opaning shogirdlaridan biri Nurjamol Sayimbetova ham shu kasbning ustasi va fidoyilaridan. U sexda payvandlash ishlari bilan bir qatorda, katta ko‘chma kranni ham mahorat bilan boshqara oladi. Albatta, katta sex va undagi texnikalar ayollar uchun bir oz vahimali ko‘rinishi mumkin. Biroq bu yerdagi ishchi xotin-qizlar shijoat va mahorat bilan bemalol shunday texnikalarda ishlayotganidan hayratlanmay iloj yo‘q.

Zavodda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatidan buyurtmachilar ham mamnun. Zero, sifatli va arzon mahsulotning xaridori ko‘p bo‘ladi. Korxonaning temir-beton mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sexlari faoliyati bilan tanishar ekanmiz, bu yerda suv qurilishi, elektr tarmoqlari, xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan turli o‘lcham va assortimentdagi tayyor temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarilayotganiga guvoh bo‘ldik.

— O‘tgan yili korxonamizga ikkita yangi texnika olib keldik. Bu samaradorlikni oshirib, yanada ko‘proq foyda keltirmoqda. Shuningdek, temir-beton mahsulotlari uchun zarur qum, sheben va sementlarni o‘zimizning texnikalarda olib kelyapmiz. Texnikalarimizning barchasi yangi, — gapini davom ettirdi korxona rahbari Marat Huseynov. — Kelgusida temir-beton mahsulotlarining sifatini yanada yaxshilab, energiyani tejash va ishchi xodimlar sonini ko‘paytirishni maqsad qilganmiz.

Korxona mutasaddilari ishni yanada unumli va sifatli qilish borasida izlanishda. Zero, bugun har bir sohaga yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy etishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda.

Yoshlar bor joyda esa kuch, shijoat va jo‘shqinlik bo‘ladi

Quruvchilar g‘isht va sement bunyodkorlikning asosi deyishadi. Nukus shahrining janubidagi sanoat iqtisodiy zonasida joylashgan 1-g‘isht zavodi sifatli mahsulot yetkazib berayotgan korxonalardan biri.

Zavod faoliyatini boshlaganiga hali ko‘p vaqt bo‘lmadi, ammo jamoa doim harakatda va izlanishda. Shundan bo‘lsa kerak, yaqin hududlarda unga raqobatdosh bir nechta g‘isht zavodi bo‘lishiga qaramay, korxona mahsulotiga talab katta. Zavod egasi, tadbirkor Azamat Polvonov hududdagi ko‘plab kishilarni ish bilan ta’minladi. Ishchilarning aksariyati yoshlar. Yoshlar bor joyda esa kuch, shijoat va jo‘shqinlik bo‘ladi.

— Men ushbu korxonada ikki yildan beri ishlayman. Bajaradigan ishimizga yarasha pul ham olyapmiz. Yonimdagilarning ko‘pchiligi o‘zim kabi yoshlar, — deydi Asilbek Esenbayev. — Ishlayman deganga yoshi, qobiliyatiga yarasha ish topiladi. Daromadimiz oilamiz uchun bemalol yetib turibdi.

Har qanday mehnat bir qarashda ko‘zga oson va oddiy bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Ammo uning o‘ziga xos sirlari va usullaridan xabardor bo‘lmasang, ish bir qolipda kechishi qiyin. Bu narsani yaxshi anglagan jamiyat rahbarlari ishni kichikroq hajmdan boshladi. Ishlab chiqarilayotgan maxsulotlari arzon hamda sifatli bo‘lgani uchun tezda o‘z xaridorlarini topdi. Bugun esa jamiyat darvozasi oldida turnaqator yuk mashinalari tizilib turganining o‘zi mahsulotlar qanchalik xaridorgir ekanini bildirib turibdi.

— Bundan 5 yil avval ishga tushgan g‘isht zavodimizda dastlab kuniga 15 ming dona pishgan g‘isht, 35-40 ming xom g‘isht tayyorlardik, — deydi korxona rahbari Azamat Polvonov. — Hozir esa kuniga 60-70 ming xom g‘isht, 50-60 ming pishgan g‘isht ishlab chiqaryapmiz. Korxonamizda 150 kishi ishlaydi. Asosiy ishchilar shu hududdagi mahallalar yoshlari. Ishlab chiqarish ko‘lami kengayib, texnikalarimiz soni ham ortdi. Biz g‘isht ishlab chiqarishda 3-4 yildan buyon ko‘mirdan foydalanyapmiz. Mahsulotlarimiz sifati yaxshi bo‘lgani bois, xaridorlarimiz ham yildan-yilga ko‘paymoqda. Yaqinda zamonaviy uskunalar olib kelamiz va o‘z-o‘zidan yana 50-60 kishi ish bilan ta’minlanadi.

Mazkur jamiyat o‘z oldiga katta reja va marralar qo‘ygan. Asosiy maqsad korxonaning faoliyati va qamrovini yanada kengaytirish, ishchilar sonini ko‘paytirish, ishni mavsumiy qilmasdan, yilning to‘rt faslida ham to‘xtovsiz yurgizish. “Harakatda — barakat” deganlaridek, izlanish va intilishlar natijasiz qolmayapti. Korxonada yildan-yilga sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarilyapti.

Kelajakka poydevor

Joriy yilda ham Investitsiya dasturiga muvofiq, Qoraqalpog‘istonning qator tuman va shaharlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun binolar qurishga, borlarini ta’mirlashga katta e’tibor qaratib kelinyapti. Natijada zamonaviy va qulay sharoitlarga ega bo‘lgan bolalar bog‘chalarini nafaqat shaharlarda, balki qishloqlarda ham uchratishimiz odatiy holga aylandi.

Ana shunday inshootni qurish ishlari Xo‘jayli tumanidagi “Shag‘ala ko‘l” ovul fuqarolar yig‘ini hududida boshlandi. Qo‘ligul quruvchilar har bir daqiqadan unumli foydalanib, obyektni belgilangan muddatda topshirishga bel bog‘lagan. Shu kunlarda ikki qavatli binoning g‘isht terish ishlari yakunlandi. Bino tomiga beton plitalari yotqizilib, murakkab temir-beton konstruksiyalarni montaj qilish, payvandlash ishlari amalga oshirilmoqda.

— Ushbu bog‘cha 60 o‘ringa mo‘ljallangan. Qurilish qiymati 2 milliard 723 million so‘mni tashkil etadi, — deydi “Mang‘it real qurilish” korxonasi ish yurituvchisi Reymboy Mirzambetov. — Joriy yil oktabr oyida obyekt foydalanishga topshiriladi.

Sirasini aytganda, barcha jabhalarda yuz berayotgan keng ko‘lamli o‘zgarish va bunyodkorlik ishlari qoraqalpog‘istonliklarning bugunidan rozi bo‘lib, kelajakka ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

DOLZARB MAVZU

GENDER TENGLIK

ta‘lim dasturlarida ham o‘z aksini topishi lozim

Boshlanishi 1-betda

Aslida, gender pariteti siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, shaxslararo munosabatlarning rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy adolat tamoyillari asosida jamiyat hayotini tashkil etishning dolzarb muammosi hisoblanadi. U jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri mavjud madaniyat, ijtimoiy munosabatlarga ta’sir qiluvchi omildir.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida gender tengligi, ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, boshqa maqsadlar doirasida ijtimoiy tenglik masalalarini ta’minlash yetakchilik qilishini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston ko‘plab davlatlar qatori Barqaror rivojlanish maqsadlarining faol tarafdorlaridan hisoblanadi va ularni 2030-yilgacha amalga oshirish bo‘yicha

Mohira XOLIQOVA,
Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori, dotsent

Milliy indikatorlar tizimini ishlab chiqqan. Bu xotin-qizlarga ta’lim olish, mehnat faoliyati va boshqa har qanday harakatlarda erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratib berishning jahon talablariga mos, shu bilan birga, o‘zimizgagina xos bo‘lgan chora-tadbirlarini nazarda tutadi.

Tafovut hamon sezilarli darajada

Gender tenglik haqida so‘z borganda, avvalo, uning mazmun-mohiyatini tushunib olish to‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, biologik jins inson tabiatining tub jihati sifatida erkak va ayolni ajratib turadigan genetik, somatik, biofiziologik xususiyatlarni anglatsa, gender biologik jins tushunchasidan farqli ravishda, jinsga oid ijtimoiy xususiyatlarni ko‘zda tutadi. Ya’ni gender ijtimoiy-madaniy konstrukt, erkaklar va ayollarning ijtimoiylashuv jarayonida orttirilgan, jamiyat tomonidan modellashtirilgan va ijtimoiy institutlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan xulq-atvor xususiyatlari, turmush tarzi me’yorlari tizimidir. U madaniyatlar bo‘yicha farq qiladi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin.

Biologik jins va ijtimoiy jins differensiyasini birinchilardan bo‘lib amerikalik antropolog Margaret Mid 1935-yilda tahlil qilgan. Gender tushunchasi esa amerikalik psixoanalitik, sotsiolog Robert Stoller tomonidan atama sifatida qo‘llanila boshlagan. Aynan Stoller birinchi bo‘lib biologik jins va sotsiomadaniy jins (gender) tushunchalarini ajratib ko‘rsatdi.

Gender tenglik, erkaklar va ayollar xuquqi muammolari uzoq tarixiy transformatsiyani boshdan kechirdi. Bu jarayon G‘arb va Sharq tamaddunining rivojlanish tendensiyasi, ilmiy-kognitiv, ijtimoiy-falsafiy tafakkurida o‘z aksini topgan. Mashhur faylasuf Platon ushbu ijtimoiy holatga nisbatan o‘z qarashlarini bildirib, “Ideal davlat” asarida erkak va ayol tabiati o‘rtasidagi farq nisbiy va faqat reproduktiv sohaga taalluqli, degan xulosaga keladi. U o‘z davrida an’ana, urf-odatlarning kuchli va uzoq muddatli ta’siri natijasida “sho‘rva pishirish” va “enagalik qilish”ga mahkum bo‘lgan xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, muammoning ijtimoiy ildizlarini ochib beradi. Nemis psixologi, sotsiolog, neofreydizm asoschilaridan biri Erix Zeligman Fromm esa “Erkak va ayol” nomli asarida “Har bir inson o‘z turining vakili sifatida individual xususiyatlarini, o‘ziga xosligini rivojlantirish erkinligiga ega bo‘lishi kerak”, deb yozadi.

Chindan ham, erkak va ayolning jamiyatdagi vazifalari ko‘pincha urf-odat va qadriyatlar asosida kelib chiqadi. Erkak pul topishi kerak, xotin-qizlar esa uyda o‘tirib, ro‘zg‘or yumushlari, bola parvarishi bilan shug‘ullanishi zarur, degan tushunchalar aksariyat xalqlarda azaldan shakllanib kelgan. Vaholanki, xotin-qizlar ham turli sohalarda alohida qobiliyat, iqtidorga ega va ular buni namoyon etish, nafaqat oila, balki jamiyatda o‘z o‘rnini topishga haqli. Gender tengligi tamoyillari ayni shu jihatlarni nazarda tutadi va uning asosi har bir insonning shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun ijtimoiy to‘siqlar hamda stereotiplarni bartaraf etish, barcha sohalarda erkaklar va ayollar uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Genderga oid stereotiplar xulq-atvor, ijtimoiy rollar, dunyoqarash, mafkura, emotsional intellekt shaklini belgilaydigan barqaror obrazlar, shablonlar, ijtimoiy kutishlar, faoliyat majmuini anglatadi. Masalan, oilada ayollar va erkaklar ijtimoiy rollarining taqsimlanishiga oid gender tengsizlik tarixiy ildizlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, konservativ stereotiplarni shakllantirdi. Bunday stereotiplar ijtimoiylashuv jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarning hayotiy ambitsiyalari, iste’dodi va qiziqishlarini to‘liq aniqlashda cheklashlarni keltirib chiqarishi, qarama-qarshiliklarga, ziddiyatlarga, psixologik muammolarga olib kelishi va ushbu stereotiplarga javob berishni istamaslik boshqa odamlarning ta’qib qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Afsuski, bunday holatlar bizning davrimizda ham tez-tez uchrab turadi. Ijtimoiy hayotning ayrim sohalarida ayollar va erkaklar tengsizligi hamon saqlanib qolmoqda. Masalan, davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish, yirik va o‘rta biznes sohasida erkaklarning ustunlik qilishi, uy yumushlari asosan, ayollarning zimmasida ekanini inkor etib bo‘lmaydi.

Xotin-qizlar sayyoramiz aholisining qariyb yarmini tashkil etsa-da, milliy parlamentlarning atigi 18,4 foizini ayollar tashkil etadi. Ish bilan ta’minlanish, karyera, oylik maosh miqdori, rahbarlik lavozimlariga tayinlanish masalalarida gender bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Jins bo‘yicha ish haqidagi tafovut dunyo miqyosida 23 foiz, qishloq joylarida 40 foizgacha yetgan. Gender tenglik ayrim sohalarda kuzatilsa-da, ilm-fan, kibernetika, injeneriya yo‘nalishlarida ayollar ishtirokini talab darajasida deb bo‘lmaydi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik esa genderga asoslangan zo‘ravonlikning eng jiddiy shakllaridan biridir. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, jahondagi har beshinchi ayol jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka uchraydi. Afsuski, bu aksariyat jamiyatlarda saqlanib qolmoqda va barcha ijtimoiy guruhlarga ta’sir ko‘rsatyapti.

Bilim va ta’lim — najot

Bu holatlarning tub ildizi ilmsizlik, ta’lim olmaslikka borib taqalishi ham rost. Shu jihatdan, gender sensitivlik (gender sezgirlik) bugungi davr ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaydi. U shaxsning gender stereotiplari namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli xil hayotiy, kasbiy va ijtimoiy vaziyatlarni hal qilishga tayyorligiga oid nazariy-pragmatik va gender ma’rifati sohasidagi bilimlar asosida shakllanadi. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4-maqsadi ham umumqamrovli va adolatli, sifatli ta’limni ta’minlash hamda barchaga hayot davomida ta’lim olish imkoniyatini rag‘batlantirish muammolariga qaratilgan.

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda taraqqiyot va ma’rifatga erishish, avvalo, ilm-fan, ta’lim rivoji bilan bog‘lanayotgani bejiz emas. Islohotlar avvalida, inson huquq va manfaatlarining ustunligi, xususan, erkak va ayol huquqlarining himoyasi, jamiyatda xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga ahamiyat masalalari keng o‘rin olgan. Bu borada huquqiy kafolatlar ham yaratilyapti. 2019-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu hujjatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalish va mexanizmlari belgilanib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Buning natijasida jamiyatda xotin-qizlarning roli, faoliyatiga nisbatan qarashlar tom ma’noda o‘zgarmoqda. Endi ayolga faqat uy bekasi sifatida emas, balki ma’lum bir kasb egasi, tadbirkor, rahbar sifatida qarash odatiy holga aylandi. Bugun mamlakatimizdagi har bir ayol o‘zi istagan sohada o‘qib-o‘rganish, ishlashdan ikkilanmayapti, barcha imtiyozlardan foydalangan holda dadil qadam tashlamoqda. Buni turli sohalarda ayollar faolligi oshib, gender tenglik ko‘rsatkichlari sezilarli o‘sayotganida ham ko‘rish mumkin. Zero, davlatimiz rahbari BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida so‘zlagan nutqida “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom ettiramiz”, deya ta’kidlagan edi.

Bunda asosiy vazifalar ta’lim tizimi zimmasiga yuklatiladi. Bugungi zamondagi ta’lim globallashayotgan dunyoning muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish, jamiyat va shaxsning axloqiy, etnik, diniy, gender va ijtimoiy masalalarni anglashga erishish, axborot va bilimlar jamiyati definitsiyalari diskursida barcha ijtimoiy munosabatlar va institutlar transformatsiyasi sharoitida faoliyat olib borish, insonlarning demokratik jamiyatda yashash ko‘nikmalari, faol fuqarolik pozitsiyasi, inson huquqlariga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish vazifalarida yetakchilik qilishi lozim.

Boshqa tomondan, milliy tafakkurda ayollarning ijtimoiy mavqeyi ham muhim ahamiyatga ega. Arab tarixchisi, geograf Shamsuddin Abu Abdulloh ibn Battuta o‘zining “Sayohatnoma” asarida qayd etishicha, turk xoqonlari imzo chekayotganda “sulton va uning xotunining amri bilan”, deb yozganlar. Turkiylarning qadim ijtimoiy-diniy, madaniy, kosmogonik hayotiy tasavvurlarida mavjud **Umay ona, Momo Havo, Chir Ine, Ayoz momo, Momoqaldiroq** kabi definitsiyalar ham turkiy xalqlarning lisoniy-kognitiv tafakkuridagi ayolga bo‘lgan ekzistensial munosabatidan darak beradi. Abu Rayhon Beruniy o‘z ijtimoiy-pedagogik qarashlarida oila tinchi bevosita aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo‘lida ekaniga alohida e’tibor qaratgan. Islom ta’limoti johiliyat an’analarini inkor etgan holda, xotin-qizlarning ijtimoiy darajasini oshirdi, ayolning yashash huquqini himoya qildi, ta’lim olish va mulkka bo‘lgan huquqini tasdiqladi.

Gender tenglik XXI asr ko‘nikmalari va universal kompetensiyalarning muhim tarkibiy qismi sifatida ham zamonaviy jamiyatlarda inson huquqlari, konstruktiv gender munosabatlari, ijtimoiy bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot va hamkorlik tamoyillarini o‘rnatishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada shaxsning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib, uni amalga oshirishga doir qator takliflarni ilgari surish mumkin.

Xususan, jamiyatda gender tengligi madaniyatini shakllantirish, gender tengligiga oid me’yorlar va qadriyatlarni yetkazish jarayonini ta’minlaydigan o‘quv dasturlarini yaratish, barcha turdagi ta’lim dasturlariga gender tengligi problematikasiga oid mavzular va asosiy tushunchalarni kiritish, gender sohasida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlarni rag‘batlantirish kabilar muhim vazifalardir. Qolaversa, umumiy o‘rta ta’lim dasturlariga gender tengligiga oid bir qator mavzularni qo‘shish ham zarar qilmaydi.

Boisi, bu boradagi tushunchalarni bolalikdan tushuntirib borish lozim. Uning ta’lim bilan bog‘liq holda o‘rgatilishi esa jamiyatda gender tenglikka oid stereotiplarning paydo bo‘lishiga yo‘l bermaydi. Zero, bilimga asoslangan har qanday fikr va tafakkur shaxsiy xulosalarning ommanikidan farq qilishi, yangicha yondashuvlarga xizmat qiladi.

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

MASHHURLAR QISHLOG‘IMIZGA KELDI

Boshlanishi 1-betda

Furqat tumani “Ingichka” mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘lib o‘tgan ma’naviyat festivalida taniqli san’atkorlar ijrosida yangragan kuy-qo‘shiqlar, shoirlar tomonidan o‘qilgan sara she’rlar guldastasi qalblarga hayajon va ko‘tarinkilik olib kirdi. Mahalladagi “Mehribon qalb” oilaviy bolalar uyida ta’lim-tarbiya topayotgan bolajonlar yo‘qlandi. Mehmonlar oilaviy bolalar uyida bolajonlarning emin-erkin yashashlari, o‘qib, kasb-hunar o‘rganishlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishib, bolajonlar bilan samimiy suhbat qurishdi. Mahalla yoshlari ishtirokida o‘tkazilgan “Ma’rifat ulashamiz” loyihasi bolajonlarga bir olam quvonch ulashdi. Taniqli shoir va yozuvchilar o‘zlarining kitoblar to‘plamini tuhfa qildi. Sozga oshufta yoshlar ustozlar bilan “bellashib” qo‘shiqlar ijro qildi.

— Uy-ro‘zg‘or yumushlaridan ortib, teatr, konsertga borishga imkon topa olmayotgandik, — deydi uy bekasi Nazokatxon Komilova. — Qutlug‘ bayram oldidan taniqli kishilarning kelgani ayni muddao bo‘ldi. Mazza qilib madaniy hordiq chiqardik. Yaxshilik, mehr-oqibat masofa tanlamaydi

deyishadi. Poytaxtimizdan kelgan taniqli kishilar bilan suhbatlashib, ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tarildi. Hayot bor ekan uning o‘ziga yarasha muammolari ham uchrab turadi. Ammo bu tushkunlikka tushish uchun asos bo‘lolmaydi. Biz kechagidan yaxshiroq yashayapmiz, ertangi kunimiz yanada nurli ekaniga ishonamiz. Samimiyatga to‘la uchrashuvlarda bunga yana bir bor ishonch hosil qildik. Hammalariga rahmat.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirda mahalla ahli, yosh-u qari bir maqsad yo‘lida jam bo‘lmoqda. Mashhur va taniqli kishilarning xalq bilan yonma-yon suhbatda bo‘lishi, fikr-mulohazalar, dilbar kuy-qo‘shiqlar ma’naviyat festivali asosini tashkil etmoqda.

— Farg‘ona deganda, ko‘z oldimizga hamisha ma’naviyat va ma’rifat qadrini baland bilgan fidoyi odamlar keladi, — deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, “Do‘stlik” ordeni sohibasi, shoira Sayyora To‘ychiyeva. — Bo‘lib o‘tayotgan samimiy uchrashuvlardan bir narsa ayon — farg‘onaliklar ezgu ishlarga yanada shijoat, yaxshi kayfiyat, ko‘tarinkilik bilan qadam tashlamoqda. Bir necha kundirki, shahar va qishloqlarda kitobxonlik, san’atsevarlikka undovchi loyihalar, insonparvarlikni ko‘zda tutgan tadbirlar bo‘lib o‘tmoqda. Biz ham aziz farg‘onaliklarning yoniq yuz-ko‘zidan, samimiyatidan, mehridan katta kuch olyapmiz, albatta. Bunday odamlarning hayotga muhabbati, mehnatsevarligi, mehmondo‘stligi va vatanparvarligiga ko‘z tegmasin.

Ma’naviyat festivali ishtirokchilari Farg‘ona viloyatining eng chekka hududi — So‘x tumanida ham bo‘lishdi.

Tumanda aholi bandligini ta’minlash maqsadida yangi sanoat va ishlab chiqarish korxonalari bunyod etish, tadbirkorlikka keng sharoit yaratish va rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini zamonaviy mezonlar asosida rivojlantirish ko‘lami kengaygan. Ma’naviyat festivali ishtirokchilari bilan bo‘lib o‘tgan samimiy muloqotda bu boradagi ishlar ko‘lami yana bir bor e’tirof etildi.

— So‘lim tog‘ qishlog‘i, mehmondo‘st odamlari haqida ko‘p eshitgan bo‘lsam-da, bu yerlarga kelmagan edim. Tasavvurimdan ham go‘zalroq joylar ekan, — deydi Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli xonandasi Adolat Ismoilova. — Ayniqsa, samimiy, dilkash odamlar bilan suhbatlashib, ularning bugungi kunlarga shukronalik hissi bilan yashayotganiga amin bo‘ldim. Aholi farovonlik yo‘lida berilgan imtiyoz va imkoniyatlardan mamnun. So‘xliklar maqom ijrochiligi yo‘lida yaratilgan qo‘shiqlar shaydosi ekan. Uchrashuvda bu yo‘nalishda ijod qilib, izlanishlar olib borayotgan yoshlar bilan tanishdik. Ular bilan tez-tez uchrashib, ijodiy hamkorlik qilishga kelishib oldik.

Aslida, oddiy bir qishloqqa bir yo‘la o‘nlab san’atkorning kelishi chinakam katta voqea hisoblanadi. Odamlar mehrini qozongan san’atkorlarni ko‘rish, ular bilan amaliy muloqot qilish istagida bo‘lgan kishilar ko‘p. Buni davrani to‘ldirib o‘tirgan shinavandalar yuz-ko‘zlaridan ilg‘ab olish qiyin emas.

— Bunday uchrashuvlar bizni odamlarga yaqinlashtirdi. Qarashlar, maqsadlar bir. Mana shunday samimiy, shukronalik hissi bilan yashayotgan odamlar davrasida bo‘lish juda zavqli, — deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bo‘lim boshlig‘i Hulkar Hamroyeva. — Bizni katta xursandchilik bilan kutib olishdi. Davralarni to‘ldirib o‘tirgan keksa-yu yoshning chehrasidagi quvonch, minnatdorlik hissini ko‘rganda kishiga yanada ilhom keladi. Bunday kezlarda xalqimizning adabiyot va san’atni qay darajada sevib-ardoqlashini yanada chuqur his qilyapmiz. Bu uchrashuvlar har qanday ijodkor uchun muloqot, mahorat va hisobot maydoni bo‘lib xizmat qiladi.

— Mana shunday ijodiy safarlar davomida xalqimizning qay darajada san’atsevar, samimiy va mehmondo‘st ekanini yanada yaqqol his etamiz, — deydi O‘zbekiston xalq artisti Odina Nazrullayeva. — Farg‘onaliklar kuy va qo‘shiq sehrini yaxshi his qiladi. Ikki odamning birida qo‘shiq, she’rga moyillik bor, hozirjavob. Shu bois, ular bilan muloqot qilish zavqli, ayni paytda mas’uliyatli.

Bir necha kundan buyon davom etayotgan madaniyat va san’at festivalida olimlar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar ishtirokida yurtimizdagi o‘zgarishlar, yangilanishlar, islohotlar samarasi haqida samimiy suhbatlar bo‘lib o‘tayotir.

— Ma’naviyat va ma’rifat tadbirlarining dasturi maroqli uchrashuv, qiziqarli kechalarga boyligi bilan ajaralib turadi, — deydi ma’naviyat-ma’rifat markazi Farg‘ona viloyat bo‘limi boshlig‘i Mas’udjon Sulaymonov. — Festival doirasida “Ma’rifat soatlari”, nuroniylar, mehnat faxriylari va yoshlar ishtirokida “Uch avlod uchrashuvlari”, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Mening ilk kitob javonim”, “Milliy qo‘shiqlar va maqom”, “Vatan madhi”, “Baxshilar tarannumida” konsert dasturlari, milliy qadriyatlarni ulug‘lovchi ko‘plab madaniy-ma’naviy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Asosiy maqsad aholi, ayniqa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalash, fuqarolarimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashini yuksaltirishdan iborat. Albatta, bunday xayrli amallar faqat bayram tadbirlari doirasida cheklanib qolinmaydi. Festival shukuhi shahar va qishloqlar, chekka mahallalarga quvonch, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlayveradi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga

Bobur hayoti, E'TIQODI VA IJODIDA TASAVVUF

BOBUR QALBAN SO'FIY EDI. VAFOTI HAM SO'FIYONA KECHDI. U DUNYODAGI ENG KATTA BOYLIGI — JONINI OG'IR KASAL YOTGAN HUMOYUN O'G'LIGA NISOR AYLADI. YA'NI JONINI OLIB, BUNING BADALIGA O'G'LINI DARDDAN XALOS ETISHINI YARATGANDAN YALINIB SO'RADI. HUMOYUN SANBALDA EDI. O'SHA YERLAR UNGA BERILGAN EDI. LEKIN SANBALNING YER-SUVI UNING MIJOZIGA YOQMADI, TEZ-TEZ ISITMASI KO'TARILADIGAN KASALGA CHALINDI, TUZALISHI JUDA UZOQQA CHO'ZILADIGAN BO'LIB QOLDI.

Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari doktori,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Boshlanishi 1-betda

Temuriy shohu shahzodalarning tasavvuf pirlariga murid tushishi aynan Amir Temurning o'zidan boshlangan. Temuriylar o'zlarini hamisha tasavvuf pir-u murshidlari, shayxlar sharofati bilan shunday yuksak martabalarga erishgan deb hisoblab kelgan. Tasavvuf temuriylar uchun ma'naviy panoh bo'lgan. Navoiy asarlari, xususan, "Nasoyim ul-muhabbat va shamoyim ul-futuvvat" tazkirasida Temur va temuriyzodalarning tasavvufga, bevosita uning vakillari bo'lgan shayxlarga munosabati, ularga murid tushgani haqida yetarlicha ma'lumotlar mavjud.

Manbalardan Sohibqironning Xoja Ahmad Yassaviy qabriga hashamatli maqbara qurdirgani, yashil marmar qabr toshini Hindistondan oldirtirgani, Zangiota dahmasiga maqbara bunyod etishga ham kirishgani, chala qolgan bu imoratni keyinchalik nevarasi Mirzo Ulug'bek oxiriga yetkazganini bilamiz. "Nasoyim ul-muhabbat"da Temurning Farg'onada yassaviya pirlaridan Xoja Boyazid (uning qabri Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi Mazor qishlog'ida), Xurosonning Andxud qasabasida Bobo Sungu degan shayx bilan uchrashgani, bu ko'rishuvlarda yuz bergan karomatlar haqida ham bayon etiladi.

Yoki Sohibqironning suyukli nabirasi Mirzo Ulug'bek azbaroyi tasavvufga e'tiqodi kuchi bilan G'ijduvonda aynan xojagon-naqshbandiya tariqati asoschisi Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy maqbarasi yonida madrasa bunyod ettirdi.

Boburni temuriyzodalarning Xoja Ahrorga munosabati ko'p qiziqtirgan. Otasi Umarshayx mirzo Xoja Ahror Ubaydulloh Valiyning muridi, hamsuhbati edi, uni shayx *"farzand"* der edi. Otasining akasi Sulton Ahmad mirzo ham Xoja Ubaydullohning muridi bo'lgan. Uning Samarqanddagi qariyb chorak asrlik hukmronligi zamonida Xoja Ahrorga taalluqli ko'p faqiru kambag'al kishilar zulm-u zo'ravonlikdan xalos bo'lar edi. Boburning yana bir amakisi Sulton Mahmud mirzo Samarqand taxtini olganidan keyin ana shu ezgu an'anani davom ettirish o'rniga, aksincha, shunday kishilarga zulm o'tkaza boshladi. Hatto bevosita hazrat Xoja Ahrorning avlodiga ham shunday tajovuzkorona munosabatda bo'lindi. Uning Xoja Ubaydullohga nisbatan bepisand munosabatini "Boburnoma"ning keyingi — 1494/1495-yil voqealari bayonida ham o'qiymiz: *"Bad e'tiqod kishi edi. Hazrati Xoja Ubaydullohg'a istixfof* (bepisandlik) *qilur edi"*. Odamlar: *"Bu nav' zulm va fisqdin bajonu dil ozurda va ranjida bo'ldilar. Vazi' va sharif, faqir va miskin nafrin va duoyi badig'a og'iz ochib, qo'l ko'tardilar"*. Ko'pning duoyi badi yomon: Sulton Mahmud mirzoning Samarqandga podsholigi besh-olti oydan oshmadi.

Boburning zamoni shunday murakkab bir davr ediki, hokimiyat uchun kurash yo'lida ota o'g'ilni, aka ukani ayamasdi. Temuriylarning aksari Xoja Ahror va uning avlodlariga murid bo'lgani uchun ham tasavvuf vakillarining bu jang-u jadallardan chetda turishi qiyin edi. "Boburnoma"da Xoja Ahror avlodlari temuriylarning taxt uchun kurashayotgan bir-biriga zid tomonlarga tarafkash bo'lib qolgani haqida ham yoziladi. *"Mullo Binoiyni va Muhammad Solihni anda Xoja xizmatida ko'rdum. Muhammad Solihni o'shul bir qatla-o'q ko'rdum"*, degan qayd esa o'zbek va tojik adabiyotining bu ikki vakili shu alg'ov-dalg'ov zamonda aynan naqshbandiya piri panohida jon saqlaganidan dalolat beradi.

Odatda otaning piri o'g'ilga ham murshidlik qilar edi. Agar otasining piri o'tib ketgan bo'lsa, o'g'il o'sha pirning muridlaridan bo'lgan ulug' zotning etagini tutar edi. Boburning otasiga pirlik qilgan Xoja Ahrorga bog'liqligi bundan ham kuchliroq edi. Umarshayx Mirzo to'ng'ich o'g'li tug'ilgach, piri Xoja Ahror huzuriga borib, chaqaloqqa ism qo'yib berishni so'raydi. Ul zoti sharif yangi tug'ilgan bolaga *"Zahiriddin Muhammad"* deb ot qo'yadi. Lekin oddiy odamlar uchun talaffuzi og'irlik qilishini hisobga olib: *"Mirzo Bobur bo'la qolsin"*, deydi. Shunga qaramay, xutbada xatiblar *"Zahiriddin Muhammad Bobur"* deb o'qishadi.

Boburning *"ustodi va piri"* Xoja Mavlonoyi qozi Abdulloh edi. "Boburnoma"da uning ota tarafdan Shayx Burhoniddin Qilichga, ona tomonidan esa Sulton Ilik Moziyga borib bog'lanishi aytiladi. Bu ikki nasab Farg'onada avvaldan baobro' bo'lib kelgan edi: *"Farg'ona viloyatida bu tabaqa muqtado* (diniy yo'lboshchi) *va qozi bo'la kelgandurlar"*. Boburning piri Umarshayx Mirzo bilan hampir, ya'ni u ham Xoja Ahrorning muridi, ul zoti sharif qo'lida tarbiya topgan edi. Shayxlar orasida valiy darajasiga yetganlar kam bo'ladi. Bobur esa pirini shunday maqom egasi hisoblaydi, bu zoti sharifga yomonlik qilganlarning juda oz fursatlarda olamdan o'tganini bunga eng

ishonchli dalil qilib keltiradi: *"Xoja qozining valiylig'ida mening hech shakkim yo'qtur. Qaysi ish valoyatqa mundin yaxshiroq dalildurkim, alarg'a qasd qilg'anlardin oz fursatta osor va alomat qolmadi"*. Ikkinchi isbot ham bor: *"Xoja qozi qo'rqmas kishi edi. Qo'rqmoq anda aslo yo'q edi. Oncha daler kishi ko'rilgan emas. Bu sifat ham valoyat dalilidur. Soyir el har necha bahodur bo'lsa, andak dag'dag'asi* (qo'rquvi) *va tavahhumi* (vahimasi) *bo'lur. Xojada aslo dag'dag'a va tavahhum yo'q edi"*.

Xuddi shu salohiyati bilan ham pir hamisha davlat ishlarida Boburga yelkadoshlik qilgan.

1497/1498-yili Bobur yetti oy urishib, Samarqand taxtini Boysung'ur mirzodan oladi va bu yerda 100 kun podshohlik qiladi. Ammo ahvol juda og'ir edi, askarlar ta'minotida katta tanqislik bor edi. Shundan ayrim navkarlar qochdi. Shunday murakkab vaziyatda Bobur, birinchi navbatda, yonida bo'lgan piriga suyangan. Maxsus vazifa bilan, ya'ni qochganlarga jazo berish, ba'zisini Samarqandga qaytarish uchun pirini Axsiga jo'natadi. Bu voqealar Xoja qozining xuddi piri Xoja Ahror kabi siyosat ishlariga bevosita va faol ishtirok etganini ko'rsatadi. Samarqandni egallab turgan mahalda Xoja qozi 18 ming qo'yni Boburning yigitlarga ulashadi. Bu ham Xoja qozining Xoja Ahror singari ko'p mol-mulkka ega bo'lganini ko'rsatadi. "Boburnoma"da pirining siyosiy mazmundagi maslahatlar ifodalangan maktublar yozgani qayd etiladi.

Andijonni olgan dushman Boburning Samarqanddan chiqib Xo'jandga yetib kelganini eshitib, Xoja qozini "ark darvozasida beizzatona osib, shahid qildi". Bu Xoja

qozining fikran sotqin Ali Do'st tag'oyi bilan birlashmaganini, Boburga oxirigacha sodiq qolganini ko'rsatadi.

Bobur piri uchun o'ch oldi. Ikki yilcha qo'ldan chiqqan ota viloyatini qayta qo'lga kiritgach, yaqinlarini talagan, pirini o'ldirgan, tuzini yeb, tuzdoniga tupurgan Uzun Hasan boshliq qavmni sadoqatli navkarlariga talatdi. Ammo Bobur xato qilganini o'sha zahoti tushundi: aynan ana shu xatosining kasriga qolib, u Andijonni ikkinchi marta tashlab chiqishga majbur bo'ldi.

Tasavvuf ahlining qat'iy aqidasiga ko'ra, agar Xoja qozi chinakam valiy bo'lsa, uning ruhi o'lganidan keyin ham dushmanlarini, ayniqsa, qotillarini tinch qo'ymasligi kerak. Shunday bo'ldi. Axir Bobur ruboiysida aytilganidek:

Har kimki, yamon bo'lsa, jazo topqusidur.

Ikki yildan keyin Ali Do'stning qo'liga yara chiqib, shu dard bilan o'ldi. O'g'li Muhammad Do'st Shayboniyxon xizmatiga kirdi, biroq o'z podshohiga vafo qilmagan o'zga podshohga sadoqat ko'rsatarmidi? Shayboniylar o'zlariga ko'rsatgan bevafoligi uchun tutib, ko'zlarini ko'r qildi: *"Ko'zlarini tuz tutti"ning bu ma'nisi bor emish"*.

Temuriylar davri jamiyatda tasavvuf pirlarining mavqei baland zamonlar bo'lgan. Hamma davrda ham siyosat xalqni g'oya-e'tiqodining kuchi orqali boshqara oladigan ziyoli bilan hisoblashishga majbur bo'lgani kabi Shayboniyxon Xoja Ahrorning o'g'li Xoja Yahyodan qo'rqar edi. Shuning uchun ham unga ikki o'g'li (Muhammad Zakariyo, Xoja Boqiy) bilan Xuroson ketishiga ruxsat berdi. Ammo keyin ortidan odam yuborib, uchalasini ham o'ldirtirdi. Bahona qilib: *"Xojaning ishi mendin emas edi, Qanbar biy va Ko'pak biy qildilar"*, dedi. Bobur bu masalada Shayboniyxonga ikkita jiddiy ayb qo'yadi, birinchisi — ularni o'zi o'ldirishga buyurib, nomardlarcha gunohni beklariga to'nkayapti; ikkinchisi — agar beklar xondan so'ramay, o'zboshimchalik bilan ish ko'ra boshlagan bo'lsa, uning xonligi qayerda qoldi: *"Bu andin yamonroq, masal* (maqol) *borkim: "Uzrash badtar az gunoh"* (*"Uzri gunohidan yomonroq"*). *Mundoq ishlarni beklar o'z boshicha qila boshlasa, bas, xonlig'ig'a va podshohlig'ig'a ne e'tibor?"*.

Naqshbandiya shayxlari ko'pincha hukmdorlar o'rtasida diplomatik munosabatlarni ado etib kelgan. Bir gal Bobur Xojagon Xojani ham shu maqsadda ishga soldi: *"Farkatqa borib, Xojani ko'rdum. Umidvor edimki, xon dodam rioyat va inoyat maqomida bo'lub, viloyat va pargana* (qism, bo'lak hudud) *bergaylar. O'ratepani va'da qildilar. Muhammad Husayn mirzo bermadi. Bilmon* (bilmayman)*, o'zlukidin bermadimu yo yuqqoridin ishorat bo'ldimu?"*.

"Boburnoma"da *"Xoja"* nomi bilan 15 yerda u yoki bu shaxs tilga olinadi. Bundan tashqari, ismi oldiga *"Xoja"* so'zi qo'shilgan holda yana 60 kishi qayd etiladi. Albatta, bularning bir qismi xojagon-naqshbandiya tariqati vakillari edi. Tadqiqotchilar oldida bularning har biriga Boburning munosabatini alohida-alohida o'rganib chiqishdek masala turibdi.

Shohlik va darveshlik — bir-biri bilan kelishmaydigan ikki qutb. Ammo Navoiy butun ijodida shoh va darveshni bir shaxsda mujassam ko'rish orzusini kuyladi. Husayn Mirzoni shunday shaxs sifatida ta'rifladi. Davr dunyoga Boburni berdi. U ixtiyoriy sur'atda shohlikka darveshlikni qo'shdi. Bu uning umumfaoliyatida mavjud yetakchi xususiyat edi.

Bobur *"kichik xon dodasi"*, ya'ni tog'asi Sulton Ahmadxonni kutib olish uchun barcha qarindoshlar Toshkent bilan Sayram o'rtasidagi Yag'o (bir nusxada Yag'mon) qishlog'iga peshvoz chiqqanlarini yozar ekan: *"Ibrohim ota va Is'hoq otaning qabri andadur"*, deya qistirib o'tishni esdan chiqarmaydi. Bu ham uning tasavvufga alohida e'tiboridan bir dalolat.

Bobur bir gal naqd o'limdan qolgan. "Boburnoma"da Xudoning bu inoyatini u bevosita tasavvufga, aniqrog'i, Xoja Ahror ruhi madadiga bog'laydi. Bobur Chustning G'ovasidagi Karnon qishlog'ida dushmandan qochib, yolg'iz o'zi qolgan payti aldanib, qopqonga tushganini obdon anglab yetadi. Uning yoniga dushman tarafdan vakil bo'lib kelgan Yusuf dorug'adan bu "gadoytopmas" yerdan chiqib ketolmas bir holatda ekanini bilganidan xabar topib, butkul tamom bo'ladi.

Voqeaning bu yog'ini hech kim Boburning o'zidan oshirib ayta olmasa kerak: *"Kishi agar yuz, agar ming yashasa, oxir o'lmak kerak... O'zumni o'lumga qaror berdim* (ya'ni *"o'limimni bo'ynimga oldim"*, deyilmoqchi). *O'shal bog'da bir suv oqib keladur edi, vuzu qildim, ikki rak'at namoz o'qudum, boshimni munojotqa qo'yub, tilak tilaydur edimkim, ko'zum uyqug'a boribtur"*. Uyquga ketganicha Bobur tush ko'radi: Xoja Ahrorning nevarasi bir ola ot minib, bir to'da otliq bilan Boburning ro'parasiga keladi-da: *"G'am yemangiz, Xoja Ahror meni sizga yibordilar. Dedilarkim: "... Har yerda mushkil ish tushsa, bizni nazarig'a kelturub, yod etsun, biz anda hozir bo'lurbiz". Holo* (hozir) *ushbu soat fath* (g'alaba) *va nusrat* (zafar) *sizning soridur. Bosh ko'taring, uyg'oning!"*.

Shu zahoti uyg'onib, qarasaki, g'oliblik qayoqda, tamoman teskari bir holat: Yusuf dorug'a va uning sheriklari o'zaro Boburni tutib, bog'lamoq maslahatini qilib o'tirishibdi. Shunda Bobur ularga: *"Sizlar bu yo'sunluq so'zlarsiz, ammo ko'rayinkim, qaysingiz mening qoshimg'a kela olursiz?"* dedi. Shu so'zning ustida bog'ning devoridin tashqarida bir to'da otliqning ovozi keldi. Yusuf dorug'a buni *Tanbal yuborgan kishilar* deb o'ylab: *"Biz agar sizni olib, Tanbal qoshig'a borsak edi, bizning ishimiz ilgari borur edi. Holo yana ko'p kishi yiboribdur sizni tutg'ali"*.

Shu o'ta dramatik, hatto fojiaviy holatda Xoja Ahror ruhi karomat ko'rsatdi: kelgan otliqlar Tanbal yuborgan kishilar emas, Boburning o'n besh-yigirma "jon tortqon navkari" ekan: *"O'shal holda manga andoq holat bo'ldikim, go'yo manga yangi boshtin Xudoy jon berdi!"*.

Boburning talqinicha, bu Xoja Ahror ruhi karomati ekaniga yana bir dalil bor. Xo'sh, bu yigitlar Boburning aynan shu yerda qamalda qolganini qayerdan bilishibdi ekan? Kelgan navkar yigitlardan biri bo'lmish Qutluq Muhammad barlosning tushiga Xoja Ahror kirib: *"Bobur podshoh Karnon degan kenttadur. Borib, ani olib kelingkim, podshohliq masnadi anga taalluq bo'lubtur"*, debdi. U bu tushini Boburga yordam uchun kelgan ulug' xon kichik xonga aytadi: *"Mening besh-olti ini-o'g'lum bor, yana bir necha yigit qo'shungiz, Karnon tarafidin borib xabar olayin"*. Xonlar o'n yigit beradi. Boboyi Parg'ariy ikki ukasi bilan bularga qo'shilib yo'lga tushishadi, uch kun deganda shu og'ir holatida Boburni topishadi. Bobur shu tariqa naqd o'limdan qoladi.

Endi Bobur hayotining tasavvuf bilan bog'liq boshqa bir nuqtasiga diqqat qilaylik. Arab adabiyoti tarixida "Qasidayi Burda" degan mashhur asar bor. Uning muallifi falaj bo'lib yotar edi. *Allohga ma'qul tushsa-yu, zora, tuzalsam,* degan niyat bilan shu qasidasini bitadi. Tez fursatda u oyoqqa turadi. Buni Bobur yaxshi bilar edi. U tez-tez takrorlanib turadigan bir dardga — bezgak kasaliga mubtalo edi. Bir gal kasalining beshinchi kuniga kelib, ko'nglidan Xoja Ahrorning "Volidiya" risolasini nazm yo'li bilan tarjima qilish niyati tug'ildi: zora, tarjima Xoja Ahror ruhiga manzur bo'lib, Bobur ham shu darddan xalos bo'lsa! Shunday bo'ldi ham.

Bobur naqshbandiyaning XVI asrdagi eng yirik vakili Maxdumi A'zamni hurmat qilgan va unga ruboiylar bag'ishlagan. Adabiyotshunos Sherxon Qorayevning Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkari ahbob" tazkirasiga suyanib yozishicha, Bobur Hazrat Maxdumiy mullo Xojagiy Kosoniyga bir bo'lak oltin quymasini yuborgan. Bu shayx ham shoir haqida "Boburiya" risolasini yozib, Hindistonga jo'natgan.

Bobur qalban so'fiy edi. Vafoti ham so'fiyona kechdi. U dunyodagi eng katta boyligi — jonini og'ir kasal yotgan Humoyun o'g'liga nisor ayladi. Ya'ni jonini olib, buning badaliga o'g'lini darddan xalos etishini Yaratgandan yalinib so'radi. Humoyun Sanbalda edi. O'sha yerlar unga berilgan edi. Lekin Sanbalning yer-suvi uning mijoziga yoqmadi, tez-tez isitmasi ko'tariladigan kasalga chalindi, tuzalishi juda uzoqqa cho'ziladigan bo'lib qoldi. Tabiblar ko'rib, yaxshiroq davo qilsin uchun Bobur uni kema bilan Dehliga keltirishlari to'g'risida farmon berdi. Dori-darmon mutlaqo foyda bermadi.

Xalq orasida juda og'ir yotgan, dori-darmon kor qilmay qolgan bemorning nihoyat darajada yaxshi ko'radigan biror narsasi Xudo yo'liga sadaqa qilinsa, o'rniga joni omon topadi, degan qarash bor edi. Mir Abulqosim shu xulosaga kelib, Boburga shuni maslahat bergan edi. Xo'sh, Humoyunning eng yaxshi ko'rgani nima edi? Otasi edi, albatta. Bobur hech ikkilanmay o'z jonini o'g'liga sadqa qiladi. Buni eshitgan Xoja Xalifa uni bu fikrdan qaytarishga, boshqa biror narsani sadaqa qilishga undaydi. Lekin Bobur o'g'lining bunday dard chekishiga chidolmaganidan qat'iy shu fikrga keladi. Bu yog'ini Boburning o'z tilidan eshitgan ma'qulroq: "Mir Abulqosimkim, ulug' kishi erdi, arzg'a yetkurdikim: *"Ushmundoq dardlarg'a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak, to inki, Tengri taolo sihhat bergay". Mening ko'nglumga keldikim, Muhammad Humoyun(ning) mendin o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q, men o'zum tasadduq bo'loyin, Xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa o'zga muqarrablardin (yaqinlardan) arzg'a tegurdilarkim: "Muhammad Humoyun sihhat topar, siz bu so'zni nechun tilingizga kelturasiz? G'araz budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak". Tilga keldikim: "Dunyo moli aning evazig'a nechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkil bo'lubtur va andin o'tubturkim, men aning betoqatlig'ini toqat kelturgaymen"*.

Bobur shu niyat-maqsadini amalga oshiradi: kasal yotgan o'g'lining boshiga borib, atrofidan uch marta aylanadi, shu tariqa ixlos bilan uning dardini o'ziga oladi. *"Ixlos — xalos"* deganlaridek, karomatni qarangki, o'g'li tuzala boshlaydi, o'zi esa... yotib qoladi: *"O'shal holatga kirib, uch qatla boshidin o'rgulub, dedimkim: "Men ko'tardim harne darding bor". O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. Ul sihhat bo'lub, qo'pti, men noxush bo'lub, yiqildim. Ayoni davlat va arkoni mamlakatni charlab, bay'at qo'llarini Humoyunning qo'lig'a berib, joynishinlig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasb qildim va taxtni anga topshurdum"*.

Xalq tilidagi *"aylanay"*, *"o'rgulay"*, *"dardingni olay"*, *"girgittoning bo'lay"*, *"sadqang ketay"* degan duolar bekordan bekorga paydo bo'lgani yo'q. Bu aynan shunday odatdan, birovning dardini o'ziga so'rab, unga shifo tilash an'anasidan kelib chiqqan.

Shoh va shoir shu yotganicha vafot etdi. Chunki u o'zini o'g'liga qurbon qildi, so'fiyona ko'ngil va sidq bilan Allohdan shuni tiladi. Tilakning bunday ijobat topishi chinakam tasavvuf vakillarigagina nasib etadi.

Sherxon Qorayevning "Humoyunnoma"ga suyanib yozishicha, Bobur umri oxirlab qolgan kezda ayonlarini yig'ib, jumladan, bunday deydi: *"Ko'p yillardan beri o'g'limga podshohlikni topshirib, o'zim Zarafshon bog'ining bir burchagida tursam, degan fikrim bor edi. Xudoning karami bilan hamma narsa muyassar bo'ldi. Lekin mana shu maqsadimni sog' paytimda qilsam, degan edim, bo'lmadi. Kasal meni ezib qo'ydi. Sizlarga vasiyatim shuki, hammangiz Humoyunni mening o'rnimga deb bilinglar va uning hukmronligini kamsitmanglar. Uning atrofida hamjihat bo'lib birlashinglar"*.

Sherxon Qorayev yana bunday deb yozadi: *"Aslini olganda, Boburshoh ahli ayonlari bilan uchrashuvida qayd etganidek, saltanatni Humoyunga topshirib, o'zi esa darvesh bo'lishni ko'ngliga tukkan, Agradagi Zarafshon bog'ining bir burchagida yashamoqni niyat qilgan edi: "Ko'nglim saltanat va podshohlikdan olindi. Shu Zarafshon bog'ida bir burchakda o'tirsam. Mening xizmatim uchun Tohir oftobachi ham yetib ortadi, degan ekan olampanoh. Biroq bu orzusi hayotligida amalga oshmadi"*.

Boburning o'limi bilan bog'liq yana bir qiziq fakt bor. Bobur 1530-yilning 26-dekabrida vafot etadi. Ammo bu birdaniga oshkor qilinmaydi: "*Oroyishxon ismli hind amiri podshohning vafotini oshkor etish yaxshilikka olib bormasligini, bu diyorda bunday noxush xabardan so'ng odamlar bozorlarni talashi mumkinligi, boshboshdoqlik avj olishini Humoyunshohga so'zlab beradi. Shundan so'ng bir jarchi kishiga qizil mato o'rab, fil ustiga o'tqazib: "Bobur hazratlari darvesh bo'ldilar, davlatni Humoyunga topshirdilar", degan xabar tarqatilib, baribir Bobur shohning o'limi sir tutiladi"*.

Shohlik — siyosat, tasavvuf — ma'naviyat. Bir qarashda, bular o'zaro hech qachon qovushmaydigan sohalardek tuyuladi. Ammo ko'rinib turibdiki, Bobur ham shoh, ham darvesh edi. Uning forscha-tojikcha ruboiysida bu gap aniq-tiniq aytilgan, undan Boburda shohlik va darveshlik birlashib ketganini bilib olamiz:

Darveshonro agar na az xeshonem,
Lek az dil-u ҷon mu'taqidi eshonem.
Dur ast magŷy shohū az darveshū,
Shohem, vale bandai darveshonem.

("Agar darveshlarga qarindosh bo'lmasak ham, lekin dilu jonimiz bilan ularga e'tiqod qilamiz. Shohlikni, darveshlikdan uzoq deb o'ylama, shohmiz, biroq darveshlarga bandamiz, ya'ni qulmiz").

Tasavvuf falsafasi g'oyalari Bobur lirikasining ham mag'zi-mag'ziga singib ketgan. Chunki u yashagan davrda, xususan, Alisher Navoiydan keyin o'zbek she'riyatini bundan boshqacha tasavvur qilish mumkin emas edi. Mana bu turkiy ruboiysi ham fikrimizga isbot bo'la oladi:

Sen gulsen-u, men haqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a
men kuldurmen.
"Nisbat yo'qdur", deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale senga quldurmen.

Bu yerda shoir *"sen"* deganda yorni, yor zamirida esa Allohni ko'zda tutayotgani sir emas. Yaratganga qullik esa — darveshning bosh maqsadi. Elga shohligi bu darveshona maqsadiga monelik qila olmaydi. Shuning uchun lirik qahramon yorga: *"Shohlik va darveshlik orasida nisbat, ya'ni bog'liqlik yo'q, deb o'ylama"*, deyayotibdi.

Izlanish izlanishga rag'bat beradi, tadqiqot tadqiqotga undayveradi. Ilm esa hayotning o'zi kabi cheksiz. Demoqchimizki, Bobur lirikasida tasavvuf g'oyalari talqini — alohida tadqiq talab qiladigan mavzu. Biz bu masalaga ma'ruza doirasidagina munosabat bildirdik va shu bilan cheklanamiz.

Tarixdan bilamizki, ayrim hukmdorlar taxtdan voz kechib, darveshlikni qabul qilgan. Masalan, Ibrohim Adham hayoti bunga yorqin misol bo'la oladi. Suvratda shoh, siyratda darvesh bo'lish Zahiriddin Muhammad Boburning hayotdagi falsafiy maslagi edi va u bunga erishdi ham. Keltirilgan fakt va dalillar shunday xulosa chiqarishga asos bo'la oladi.

Demak, shoh va shoir shaxsiy hayoti, e'tiqodi va ijodini tasavvufdan ayri tasavvur qilish, tushunish va tushuntirishning aslo iloji yo'q.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-846.
43690 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Topshirildi — 03:15